



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025

Accepted: 1 February 2025

Published: 10 Febrary 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF COOPERATION WITH THE COMPETENT BODIES OF FOREIGN STATES IN THE FIELD OF INVESTIGATION ON THE LEGALIZATION OF INCOME OBTAINED FROM CRIMINAL ACTIVITIES

Kudratillaev Khazratali Zokirjon oglı

Lecturer of the Department of Criminal Procedural Law,
Tashkent State University of Law

E-mail: qudratillayev.xazratali@gmail.com

Abstract. This article describes the procedure for organizing cooperation with the competent authorities of foreign states in the field of investigating the legalization of income derived from criminal activity at the stage of implementing judicial and legal reforms, its features and procedural significance. The article examines the scope of application of the cooperation institute through an analysis of the views put forward by scientists on the issue of organizing cooperation with the competent authorities of foreign states in the field of investigating the legalization of income derived from criminal activity. Based on the views and ideas put forward by scientists, the issue of organizing cooperation with the competent authorities of foreign states in the field of criminal activity related to the legalization of income was analyzed from a scientific, theoretical, practical point of view and through the prism of legislative norms. At the same time, the article analyzes the role and significance of this type of cooperation in the criminal process, its features, some problems arising in criminal procedural legislation and judicial and investigative practice. Based on the results of the analysis, relevant conclusions, proposals and recommendations were developed on the procedure for organizing cooperation with the competent authorities of foreign states in the field of investigation of legalization of income derived from criminal activity, in criminal proceedings, existing problems in the legislation and issues of their elimination.

Keywords: criminal case, legalization, cooperation, income from criminal activity, authorized bodies.

JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI

Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud-huquq islohotlarini amalga oshirish bosqichida jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishni tergov qilish sohasida xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorlikni tashkil qilish" tartibi, uning o'ziga xos jihatlari va protsessual ahamiyati bayon etildi. Maqolada olimlar tomonidan jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishni tergov qilish sohasida xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorlikni tashkil bo'yicha ilgari surilgan qarashlar orqali ushbu hamkorlik institutini qo'llanish doirasi o'rganildi."Olimlarning qarashlari va ilgari surgan g'oyalaridan kelib chiqqan holda, "jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishni tergov qilish sohasida xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorlikni tashkil qilish" masalasi ilmiy, nazariy, amaliy va qonunchilik normalari orqali tahlil etildi. Shu bilan birga, maqolada ushbu turdag'i hamkorlikning jinoyat protsessida tigan o'rni va ahamiyati, uning o'ziga xos jihatlari, jinoyat protsessual qonunchilik va sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar tahlil etildi. Tahlil natijalari yuzasidan, jinoyat protsessida "jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishni tergov qilish sohasida xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorlikni tashkil qilish" tartibi, qonunchilikdagi mayjud muammolar hamda ularni bartaraf etish masalasi yuzasidan tegishli xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: jinoyat ishi, legallashtirish, hamkorlik, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlar, vakolatli organlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N83>

Kirish

Globallashuv sharoitida jinoyat sodir etgan shaxslar tomonidan jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni xorijiy davlatlar hududiga olib chiqib, yashirish holatlari tobora kengayib bormoqda. Bu esa davlatlardan bunday daromadlarni qaytarish sohasida o'zaro hamkorlik aloqalarini olib borish, xususan, mazkur masalalarni milliy qonunchilikda tartibga solish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

BMTning Korruksiyaga qarshi kurash Konvensiyasi (5-bo'lim), Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi (14-modda)da a'zo-davlatlar jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni qaytarish choralarini ko'rish majburiyati belgilangan.

Ayni paytda O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligidida jinoiy faoliyatdan olingen mol-mulkni xatlash, musodara qilish mexanizmini mavjud emasligi, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni o'rnatishda qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda. Shu sabab, ushbu masalani ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Material va metodlar

Ushbu sohada jinoyat-protsessual qonunchilikda aniq tartib o'rnatilmaganligi, hamkorlikni, ularni qo'llashda yagona amaliyotning mavjud emasligi va sud-tergov amaliyotidagi muammolar sababli, mazkur maqolada asosan, qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu maqolada kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

FATF guruhi ekspertlarining O'zbekiston bo'yicha 2021-yildagi monitoringning dastlabki tavsiyalarida jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni qaytarishga doir normalarni milliy qonunchilikka kiritish ko'rsatilgan.

Aktivlarni qaytarish jarayonlariga misol tariqasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarini ko'rish mumkin. 2010-yilda chop etilgan Yevropa Kengashining Ichki boshqaruv direksiyasining "Jinoiy xususiyatga ega daromadlar bilan muomalada bo'lish haqidagi tavsiyalari"da ko'rsatilgan [1, B.86-96].

Tadqiqot natijalari tahlili

Hozirgi vaqtida jinoiy yo'l bilan topilgan pul mablag'lari va mol-mulkni xalqaro miqyosda qidirish, xatlash va musodara qilish muammosi xalqaro organlar va tashkilotlar tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan masalaga aylangan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning homiyligidagi tashkilotlar tomonidan jinoyatlarni tergov qilishda, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni qidirish, hibsga olish va musodara qilishga ko'maklashish masalalarida xalqaro huquqiy yordam ko'rsatishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqishga doimiy e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan hujatlarda tavsiyaviy xarakterdag'i normalarni aniq mazmun bilan to'ldirish, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni qidirish, xatlash va musodara qilish masalalarini amaliy ehtiyoj nuqtai nazaridan chuqurroq tadqiq etish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bunga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: BMTning 1988-yil 20-dekabrdagi Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi, BMTning 2000-yil 15-noyabrdagi Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi, 1999-yil 9-dekabrdagi Terrorizmni moliyalashtirishga

qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha maxsus moliya komissiyasi (FATF — Financial Action Task Force on Money Laundering) tavsiyalari va MDHning 1998-yil 8-dekabrdagi "Noqonuniy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga ("yuwishga") qarshi kurash to'g'risida"gi Model qonuni va boshqalar.

Ushbu yo'naliш bo'yicha ayrim xorijiy davlatlar tajribasi o'rganib chiqildi. Xususan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 577-moddasiga ko'ra, huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi so'rov (topshiriq, iltimosnomasi) asosida esa Qozog'iston Respublikasining vakolatli organlari jinoiy yo'l bilan olingan mol-mulkni, pul va qimmatliklarni, shuningdek guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki mahkum shaxslarga tegishli mol-mulkni aniqlash va xatlash maqsadida ushbu Kodeksda nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshiradilar. Bundan tashqari, ushbu so'rayotgan mulklar jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida foydalanishi lozim. Shuningdek, xorijiy davlat sudi qarorini tan olish va ijroga qaratish tartibida, jinoiy faoliyatdan olingan daromadni musodara qilish masalasi ko'rib chiqilishi mumkin.

Xalqaro so'rov bo'yicha xatlash va musodara qilish masalasi Buyuk Britaniya davlati tajribasida o'rganilganda, mazkur masala Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar to'g'risidagi qonun (Proceeds of Crime Act 2002, POCA) qonun bilan tartibga solingen bo'lib, unga ko'ra, Buyuk Britaniyada xorijiy davlatlarning so'roviga binoan mol-mulkni xatlash quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- Mol-mulk korrupsiya, pul yuviш, soliqlardan bo'yin tovlash, terrorizm yoki boshqa transmilliy jinoyatlar kabi jinoiy faoliyat bilan bog'liq bo'lsa.
- Mol-mulk jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash yoki jarimalarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lsa.
- Mol-mulkning noqonuniy yo'l bilan olingan daromadlar hisobiga sotib olinganligi haqida shubha mavjud bo'lsa.

Buyuk Britaniya chet davlatlarning so'roviga binoan mulkn xatlash uchun kuchli huquqiy vositalarga ega. Jinoyat faoliyatidan olingan daromadlar to'g'risidagi qonun va tushuntirib bo'lmaydigan boylik haqidagi farmonlar kabi mexanizmlar orqali mamlakat pul yuviшga qarshi samarali kurashmoqda va xalqaro manfaatlarni himoya qilmoqda. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya mulk egalarining huquqlarini hurmat qilgan holda, qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi o'rganilganda, mazkur yo'naliш Rossiya Federatsiyasining Jinoyat-protsessual kodeksi va "Jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi federal qonuni bilan tartibga solingen. Unga muvofiq, musodara qilingan mol-mulk, agar bu xalqaro bitimda nazarda tutilgan bo'lsa, chet davlatga berilishi mumkin. Shuningdek, ushbu mol-mulklar jinoiy faoliyatdan olingan bo'lishi va bu bo'yicha so'rov kelib tushgan taqdirda sud qarori bilan xatlanishi va xorijiy davlat so'roviga ko'ra yuborilishi mumkin.

Bolgariya jinoyat-protsessual kodeksida ham Qozog'iston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksiga analogik norma mavjud.

Taklif etilayotgan qo'shimchalar ushbu sohadagi huquqiy bo'shliqni bartaraf etish va Jinoiy faoliyatdan olingan mol-mulkni qidirish, xatlash, musodara qilishga doir masalalarni milliy qonunchilikda tartibga solish maqsadida kiritilmoqda. So'nggi vaqtarda, aktivlarni

musodara qilish va qaytarish bilan bog'liq O'zbekiston qonunchiligining xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan mutaxassislarining bahosi batafsil tahlil etib kelinmoqda.

Xususan, BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasiga a'zo davlat sifatida 31-moddasiga asosan, korrupsiyaga oid jinoyatlardan olingen daromadlarni qaytarish choralarini tashkil etish yuzasidan majburiyatidir[2].

Shuningdek, jinoyatdan olingen daromadlarga qo'shilgan yoki o'zgartirilgan mol-mulkdan, jinoyatlardan olingen daromadlardan yoki bunday daromadlar qo'shilgan mulkdan olinadigan foyda yoki boshqa imtiyozlarga nisbatan.

Hozirda, afsuski, milliy qonunchilikda aktivlarni qaytarish masalasini qonuniy tartibga solish yuzasidan ushbu sohada jiddiy o'zgarishlar mavjud emas. Xalqaro ekspertlarning savollariga javoban vakolatli organlarning xodimlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Jinoyat protsessual kodeksidan shunga o'xshash moddalarni keltirishadi, bu esa bugungi kunda O'zbekiston qonunchiligidagi aktivlarni qaytarish va musodara qilishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarning faqat bir qismi qamrab olingenligini tasdiqlaydi.

Mavzuni o'rganishda chet el mualliflarining tadqiqotlari ham alohida o'rinn tutadi (masalan, Rossiyalik olimlardan A.Ivolga, O.Korzon, D.Primakov, M.Solyanova, R.Fyodorov, M.Shigaryova, D.Chernyavskiy va Yevropa olimlaridan Dj.P.Brun, K.Gardner, L.Grey, T.Grinberg, M.Latem, L.Millz, R.Resika-Kirkbrayd, K.Skott, K.Stefenson, L.Semyuel, K.Xansen, D.Shants).

Xorijiy mamlakatlar tajribasining barcha jihatlarini ko'rib chiqish natijasida chet elda aktivlarni qidirish, musodara qilish tizimi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga hamda uning kuchli va zaif tomonlarini baholashga imkon beradi. Aktivlarni noqonuniy olib chiqib ketish yuqori professional firibgarlik sxemalari bilan sodir etilishi sababli ularni fosh etish murakkab moliyaviy va tergov jarayonlarning majmuasi hisoblanadi. Raqamli texnologiya va elektron pul o'tkazmalari tizimida, davlat idoralari va boshqa davlatlar o'rtasida ma'lumot almashish, qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirishda eskirgan prinsiplarga asoslanishi natijasida huquq-targ'ibot idoralari xodimlari jinoyatchilardan doimo orqada qoladilar.

Ba'zi davlatlarda aktivlarni qaytarish protsessual jarayonlarining elementi bo'lmish "umumiy tartibda musodara qilish" ko'proq amaliyatda qo'llaniladi, ba'zi davlatlarning qonunlarida esa "maxsus musodara"ning jinoiy-protsessual jihatlari batafsilroq tartibga solinadi.

Shunga qaramay, dunyoning aksariyat mamlakatlari qonunlarida sud hukmi bilan jinoyatchilik quroli, jinoiy yo'l bilan olingen mol-mulk, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni musodara qilish imkoniyati to'g'risidagi qiyosiy standartlar mavjud.

Aynan shu sohadagi jinoyat ishlarida aktivlarni qidirushi, taqiqqa solish, musodara qilish va so'ralayotgan davlatga topshirish yuzasidan davlatlar o'zaro hamkorlikda huquqiy yordam ko'rsatadilar.

Aktivlarni qaytarish jarayonlariga misol tariqasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarini ko'rish mumkin. 2010-yilda chop etilgan Yevropa Kengashining Ichki boshqaruvi direksiyasining "Jinoiy xususiyatga ega daromadlar bilan muomalada bo'lish haqidagi tavsiyalari"da ko'rsatilgan [3].

Ittifoq davlatlarida jinoiy daromadlarni qaytarishning tashkiliy hamda normativ jihatlarining tarkibi quyidagilardan iborat:

- 1) jinoiy daromadlarni aniqlash, xatlash hamda qaytarish yuzasidan qonun hujjalari;

2) turli darajadagi taftish olib boruvchi hamda jinoiy daromadlarni qaytarish faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar markazi;

3) jinoiy daromadlarni qaytarish yuzasidan texnik hamda aloqa vositalari bilan ta'minlash;

4) davlatlararo hamda tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va hamkorliklar.

Rivojlangan Yevropa mamlakatlarida jinoyat natijasida orttirilgan mulklarni qaytarishda maxsus musodara qilishning quyidagi turlari amalda bo'ladi, xususan:

- jinoiy ishi qo'zg'atilgandan so'ng;
- jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar yoki alohida holatlarda;
- mulknii xatlash hamda taqiqqa olish.

AQSH qonunlarida aktivlarni qaytarish bo'yicha huquqni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari Konstitutsiya, milliy qonunlar va xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

AQSH hukumati qonunlariga muvofiq sud orqali ayblanuvchiga nisbatan uning mulkini jinoyat protsessi davomida ham musodara qilishi mumkin yoki fuqarolik tartibida ham musodara qilish mumkin. Birinchi holatda ayblanuvchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan taqdirda qo'llaniladi, u vafot etgan yoki yashirinib yurgan taqdirda qo'llanilishi mumkin emas. Agar jinoyat sodir etishda uchinchi shaxslarning mulki foydalanilgan bo'lsa, bunday holatda mulkini musodara etib bo'lmaydi. Fuqarolik tartibida musodara etishda shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish talab qilinmaydi va jinoyatchining mulki bilan cheklanmaydi. Bunday protsessual harakatlarning afzalligi yashirinib yurgan jinoyatchilar yoki uchinchi shaxslarning mulkiga nisbatan qo'llanilishidadir. Umumiy qoida sifatida, fuqaroviylar musodara qilish jinoyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan mulkka nisbatan qo'llaniladi.

AQSH Qonunlar to'plamining 18-bandi va 21-bandlariga binoan, agar hukm chiqarilgan paytda mulk musodara qilinadigan bo'lsa:

- 1) mulknii aniqlashning imkonini bo'lmasa;
- 2) uchinchi shaxsga topshirilgan yoki sotilgan bo'lsa;
- 3) sudning sudloviga tegishli bo'lgan hududdan chiqib ketgan bo'lsa;
- 4) hajmi sezilarli darajada qisqartirilgan bo'lsa;
- 5) boshqa mol-mulk bilan aralashgan holda, uni ajratib bo'lmaydigan holda, sud ayblanuvchining ekvivalent qiymatidagi har qanday mol-mulkini musodara qilish bo'yicha qaror qabul qilishga haqlidir.

Aktivlarni qaytarish masalalari bo'yicha, Kanada qonuni mulkka nisbatan manfaati bo'lgan jinoyat jabrlanuvchilariga, agar bunday manfaat Kanada sudi tomonidan tasdiqlangan hamda bu to'g'risida hukm chiqargan bo'lsa, uni qaytarish orqali o'zlashtirishga ruxsat beradi. Bundan tashqari, jinoyat ishi bo'yicha tergov yoki sud jarayonida musodara qilingan yoki muzlatilgan har qanday mulk istalgan vaqtida o'z egasiga qaytarilishi mumkin.

Avstraliya moliyaviy razvedka agentligi jinoiy daromadlarni tezkor kuzatib borishda asosiy rol o'ynaydi. Mamlakatdagi bank va moliya institutlari shubhali operatsiyalar va kassa operatsiyalari to'g'risida mazkur idoraga doimiy hisobot berishlari shart va agentlik esa maxsus xizmatlar bilan birgalikda olingan ma'lumotlarni Avstraliya va chet davlatlarda daromadlarning xavfsizligi va ularni hisobga olishdan foydalanadilar.

Noqonuniy orttirilgan mablag'lar va mulknii tezkorlik bilan qaytarilishini ta'minlash maqsadida 2002-yildagi "Jinoiy daromadlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilinib, ushbu qonunda

jinoiy aktivlarni qidirish, olib qo'yish va musodara qilish tartibi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, qonunda Avstraliyaning yurisdiksiyasida bo'lgan har qanday jinoyat yuzasidan xorijiy davlatning vakolatli organlari Avstraliya sudlariga tegishli fuqarolik ishini qo'zg'atishi uchun fuqaroviylar da'vo kiritishi mumkin. Shuningdek, mazkur qonunga asosan "mablag'larni adolatli taqsimlash" sxemasi ko'zda tutilgan bo'lib, unga binoan tegishli tartibda jinoiy daromadlarni xorijiy davlatga qaytarish bilan bog'liq harakatlar amalga oshiriladi, ular keyinchalik jinoyatdan zarar ko'rgan jabrlanuvchilarga kompensatsiya to'lashda foydalanishi mumkin[4].

Yaponiyada aktivlarni qaytarish vositasi bu "musodara qilish" protsessual tergov harakatidir.

Yaponiya Jinoyat kodeksining 9-moddasiga ko'ra, "musodara qilish", jinoyatlar uchun belgilangan tartibda tayinlanadigan jazoning qo'shimcha shaklidir. Jinoyat kodeksining 19 va 19-2-moddalarida, ushbu qoidalar quyidagicha aks etgan:

Musodara qilish (19-modda).

Quyidagi predmetlar musodara qilinishi mumkin:

1) jinoyatning ajralmas elementi bo'lgan predmet;

2) jinoyat sodir etishda qo'llanilgan yoki foydalanishga mo'ljallangan narsa;

3) jinoiy qilmish sodir etilishi natijasida orttirilgan narsa yoki jinoyat sodir etib, uning evaziga kompensatsiya sifatida olingan narsa;

4) xuddi shu kabi jinoyat natijasida orttirilgan buyumga almashtirish natijasida qo'lga kiritilgan narsalar.

Yaponiya qonunchiligiga binoan musodara qilish nafaqat jinoyat sodir etganlik uchun qo'shimcha jazo sifatida, balki fuqaroviylar huquqiy qonunlarni buzilgan taqdirda ham qo'llanilishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasi tajribasi jinoiy aktivlarni qaytarish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy va tashkiliy jihatdan bir qancha ijobjiy natijalarga erishgan.

Xususan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida xorijga chiqarilgan jinoiy aktivlarni qaytarishdagi asosiy vosita hisoblangan musodara ishini yuritish tartibi (71-bob), jinoiy sud ishini yuritish sohasida xalqaro hamkorlik (12-bo'lim), Jinoyat kodeksida esa musodara institutining huquqiy maqomi (48-modda), Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunda esa noqonuniy topilgan mulklarni qaytarish (25-26-mm), korrupsiyaviy huquqbazarlik natijasida tuzilgan aktlarni haqiqiy emas deb topilishi yuzasidan munosabatlar to'liq tartibga solingan.

Jumladan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 667-672-moddalarida hukm chiqqunga qadar noqonuniy olingan mulkni musodara qilish ishini yuritish tartibini belgilaydi. Mazkur bobda musodara ishini qo'zg'atish, uning sud tomonidan ko'rib chiqilishi boshqa alohida holatlar yoritib berilgan.

Qozog'iston hukumati tomonidan amalga oshirilgan so'nggi islohotlarga ko'ra, jinoiy aktivlarni xorijdan qaytarish masalalarining tashkiliy mexanizmlari yanada mustahkamlandi. 2022-yil 5-iyul kuni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti K.-J.Tuqayevning 908-sod qarori bilan "Iqtisodiy resurslarning noqonuniy konsentratsiyasiga qarshi kurash bo'yicha komissiyasi" tuzildi[5]. Mazkur komissiyaning asosiy vazifasi etib mamlakat hududidan noqonuniy olib chiqib ketilgan daromadlarni qaytarish belgilandi.

Xulosalar

Yuqoridagilarni o'rganib chiqib, JPKga quyidagi "Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni xorijiy davlatdan qaytarish" nomlangan 592-2-moddasi bilan to'ldirish taklif qilinadi.

Surishtiruv, tergov, sud va ijob organlari tomonidan jinoiy faoliyatdan olingen va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilgan daromadlarni aniqlash va xatlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq ushbu Kodeksda nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalgalash oshiradilar.

Jinoiy faoliyatdan olingen va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilgan daromadlarni aniqlash, xatlash, musodara qilish va qaytarish yuzasidan protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni yuborish zaruriyati yuzaga kelganda, barcha zarur materiallar mazkur so'rovni yuborish haqidagi masalani hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasiga taqdim etiladi.

Tergov va surishtiruv organizining xorijiy davlatning vakolatli organiga protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rov yuborish yuzasidan so'rovnomasi va unga ilova qilingan barcha hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi — O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zarolik prinsipi asosida jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni, shuningdek gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumlarga tegishli bo'lgan mol-mulkarni aniqlash, xatlash, musodara qilish va qaytarish yuzasidan protsessual harakatlarni bajarish to'g'risida JPKda belgilangan tartibda so'rov yuboradi. Bunday so'rov O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinnbosari tomonidan imzolanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Немцов Ю.И., Аржанова И.М.. Построение системы возврата активов в зарубежных государствах (на примере стран ЕС) / Экономическая и финансовая безопасность. 1/2017. ст. 56-63.;
2. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции, принятия резолюцией Ген. Асс. ООН 58/4 от 31.10.2003 года;
3. Forsaith J., Irving B., Nanopoulos E., Fazekas M. Study for an Impact Assessment on a Proposalfor a New Legal Framework on the Confiscation and Recovery of Criminal Assets. DRR-5380-EC. FinalReport Prepared for the European Commission Directorate General Home Affairs Published 2012 by the RAND Corporation// http://ec.europa.eu/home-affairs/doc_centre/crime/docs/RAND%20EUROPE%20Study%20Final%20Report.pdf //;
4. <https://www.legislation.gov.au/Details/C2018C00090> // Federal Register of Legislation.Proceeds of Crime Act 2002.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).